

CHET TILLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

Yernazarov Faxriddin, katta o'qituvchi

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, Toshkent, O'zbekiston.

Annotatsiya: *Bu tezisda chet tillarni o'qitishda interfaol metodlarning ahamiyati, o'qituvchi dars jarayonida talabalarni faollikka, izlanishga, mustaqil fikrlashga undashi, talabalarning o'quv-biluv vazifasi, topshiriqni o'zlashtirib olishga ishtiyoq bilan intilishi va anglash jarayonidan mamnun bo'lishi ta'limning samaradorligiga olib kelishi haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *interfaol metodlar, o'qitish, faollik, sifatli ta'lim va fikrlash.*

“Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohot samarasi, avvalambor, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bog'liq”. [1] Sh. Mirziyoyev. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir.—T.: O'zbekiston, 2017.

Hozirgi vaqtda ta'limning iqtisodiyligi va takomillashganligi o'rgatuvchi va o'rganuvchi aloqalari, texnika va texnologiyalar ta'limni interfaol metodlar asosida tashkil qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Ta'lim tizimida, ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish—ta'lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir. Yoshlarni yangicha ishlashga va tafakkur yuritishga o'rgatish davr talabi ekanligi yurtboshimiz tomonidan asoslab

berildi. Barcha ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanishmoqda. Bu esa o'z navbatida interfaol ta'lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarni mazmun-mohiyatini to'liq tushunib yetishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo'lishini ta'minlab berishga yordam beradi.

“Chet tilni o'rganish murakkab lingvopsixologik hodisadir. Chet tilni o'rganish jarayonida o'rganuvchi ongida ona tili va xorijiy til sistemalari to'qnashadi. O'rganuvchining ona tilisi yangi til sistemasini o'zlashtirishni

osonlashtiradi yoki uning yo‘liga to‘siq bo‘ladi. Tilshunoslikda birinchisini “fasilitatsia” va ikkinchisini -“interferensia” atamaları orqali belgilashadi”. [2] (M.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish.–T.: O‘qituvchi.1996.)

Interfaol metod nima yoki nimani bildiradi? Interfaol metodlar o‘quvchi-yoshlarning o‘zaro muloqot va o‘zaro ta’siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usul. “Interaktiv” so‘zi inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “interakt”, ya’ni “inter”-bu “o‘zaro”, “akt”-“harakat, ta’sir, faollik” ma’nolarini angalatadi.

“Professor-o‘qituvchi mashg‘ulot jarayonida talabalarni faollikka, izlanishga undar ekan o‘quv materialini so‘zlab berishgagina emas, balki muallifning fikrini rivojlantirishga ham o‘rgatib boradi, talabaning fikrlash faolyatini jonlantiradi. O‘quv-biluv vazifasi, topshirig‘ini o‘zlashtirib olishga ishtiyoq, intilish, qiziqish uyg‘otish, o‘zlashtirish, anglash jarayonidan mamnun bo‘lish ta’limning samaradorligini oshiradi”. [3] (M.Ochilov, N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi.–T.: Aloqachi. 2008)

Interfaol usullardagi darslar o‘quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga shuningdek fikrni yozma ravishda bayon etishga yordam beradi. Yangicha metodlarni yoki innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish haqida to‘xtalganda interfaol usullarning o‘quv jarayonida qo‘llanishi tushuniladi. Interfaol metodlarning ta’lim va tarbiya jarayonida ahamiyati va imkoniyatlari yoqori. Interfaol metod-ta’lim jarayonida talabalar va o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali talabalarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materiallarini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar miqdori kamligi, lekin seminarlar miqdori ko‘pligi, talabalar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, guruh jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa uslublardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos

ahamiyatga ega. “Interfaol usullarning an’anaviy ta’lim usullaridan farqi-talaba bilan o’qituvchining pedagogik muloqati, aloqasining o’ziga xosligida, pedagogning yuqori mahoratida, talaba shaxsiga nisbatan munosabatning insonparvarlik xarakterida, talabaning individual qobiliyati namoyon bo’lishi, ijodiy mustaqilligi kabilarda ko’zga tashlanadi. Ta’lim bo’lajak mutaxassisning kasbiy faoliyati gavdalanitiriladigan sharoitda olib boriladi, muammoli vaziyatlarni hal qilishga qaratiladi. Bilim, ko’nikma va malakalarni jamoaviy faoliyatida birgalikda o’zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Bunday vaziyatda talaba ta’limning obyektigina emas, subyektiga ham aylanadi, faolligi ortadi”. [4] (M.Ochilov, N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi.–T.:Aloqachi. 2008).

Keling quyidagi interfaol metodlar haqida gaplashaylik! Interfaol ta’lim metodlar, ko’pincha turli shakllardagi o’quv mashg’ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo’llanmoqda. Bu metodlardan foydalanish mashg’ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta’lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Interfaol metodlar:1.“ “Aqliy hujum”- muammolarni hal qilishda keng qo’llanadigan anchagina mashhur metoddir. Bu usul katta miqdordagi g’oyalarni yig’ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash dan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo’lgan fikrlarni yengishdir. U qatnashchilarni o’z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga undaydi va berilgan har qanday muammoga ko’p sonli yechimlar topishda yordam beradi”. [5] (H.Omonov va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.–T.: Iqtisod-Moliya. 2009). 2.“Keys-stadi” texnologiyasi o’quvchi (talaba)larda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.3.“Blist-so’rov” texnologiyasi: ketma-ketlik va izchillikni o’rnatishga qaratilgan texnologiyadir. 3.“Qanday” texnologiyasi. Qanday qilib muammoni hal etish mumkin? Muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etadi va ularni amalga oshirish usullarini ham o’rganadi. 4.“Nima uchun” texnologiyasi. Nima uchun bu muammo kelib chiqdi? Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish jarayonida qo’llash mumkin. 5.“T-jadval” konseptsiyaga, voqeylikka, ob’ektga nisbatan

munosabat bildirish uchun qo'llash mumkin.-Talabalar sxemani tuzish qoidalari bilan tanishtiriladi; - Yakka, juftlikda yoki guruh ichida sxema asosida taqqoslash faoliyati tashkil etiladi; -Yagona jadvalga tushiriladi.6. "SWOT" tahlili. S.- kuchli tomoni, W.-kuchsiz tomoni, O.-Kuchsiz tomoni, T.-xavf-xatar. 7."Venn" diagrammasi 3(uch) ob'ektni, tushunchani, hodisani taqqoslash faoliyatini tashkil etish jarayonida ishlatiladi. 8. B/B/B. : 1).Bilaman. 2).Bilishni hohlayman.3).Bilib oldim; 9. Insert: V.-bilaman, (-) - to'g'ri kelmadi, (-)-yangi axborot, (?)-tushunmadim.

Ta'lim amaliyotida foydalanayotgan o'qituvchi har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganishi va amalda foydalanishi zarur. Professor-o'qituvchi mashg'ulot jarayonida talabalarni faollikka, izlanishga undar ekan o'quv materialini so'zlab berishgina emas, balki muallifning fikrini rivojlantirishga ham o'rgatib boradi, talabaning fikrlash faoliyatini jonlantiradi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, chet tillarni o'qitishda interfaol metodlarning ahamiyati baland. Interfaol metodlar o'qituvchi tomonidan unumli foydalanish natijasida talabalarning faolligi, izlanuvchanligi va mustaqil fikrlashini oshirib, ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Birinchi navbatda talabalar jamoa bilan samarali ishlashga va muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarni topish ko'nikmalarini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. –T.: O'zbekiston, 2017.
2. M. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish.–T.: O'qituvchi. 1996.
3. M. Ochilov, N. Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi.–T.: Aloqachi. 2008.
4. H. Omonov va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.–T.: